



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-iyul oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(67) 236-70-00*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-iyul oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 359,2 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 113,1 mln. AQSH dollariga yoki 23,9 % ga kamaygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **359,2** -**23,9** %

(2023- y.: **472,2**)



Saldo

2024- y.: - **52,8** (2023 y.: - **64,6**)



Eksport

2024- y.: **153,2** -**24,8** %

(2023- y.: **203,8**)



Tovarlar: 151,4



Xizmatlar: 1,8



Import

2024- y.: **206,0** -**23,3** %

(2023- y.: **268,4**)



Tovarlar: 206,0



Xizmatlar: -











Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 153,2 mln. AQSH dollariga (24,8 % ga kamaydi) va import hajmi 206,0 mln. AQSH dollariga (23,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 52,8 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)


<p>Rossiya</p> <p>TSA – 60,8</p> <p>Eksport: 35,8 Import: 25,0</p> <p> 16,9 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 87,7</p> <p>Eksport: 21,5 Import: 66,2</p> <p> 24,4 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 57,1</p> <p>Eksport: 54,2 Import: 2,9</p> <p> 15,9 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 95,7</p> <p>Eksport: 16,3 Import: 79,4</p> <p> 26,6 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 9,3</p> <p>Eksport: 4,2 Import: 5,1</p> <p> 2,6 %</p>
<p>Ukraina</p> <p>TSA – 3,0</p> <p>Eksport: 1,0 Import: 2,0</p> <p> 0,8 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 10,0</p> <p>Eksport: 8,6 Import: 1,4</p> <p> 2,8 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 4,7</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 4,7</p> <p> 1,3 %</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 3,0</p> <p>Eksport: 2,8 Import: 0,2</p> <p> 0,8 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 3,5</p> <p>Eksport: 1,9 Import: 1,6</p> <p> 1,0 %</p>

Sirdaryo viloyati jahonning 46 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (16,9 %), XXRda (24,4 %), Afg‘onistonda (15,9 %), Qozog‘istonda (26,6 %), Turkiyada (2,6 %) va Hindiston (1,3 %) qayd etilgan.













SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	61,9	69,0	60,8
 <i>Eksport</i>	33,0	30,8	35,8
<i>Import</i>	28,9	38,1	25,0
XXR	77,8	73,9	87,7
 <i>Eksport</i>	32,4	27,7	21,5
<i>Import</i>	45,4	46,2	66,2
Germaniya	5,5	2,8	3,5
 <i>Eksport</i>	0,9	0,1	0,4
<i>Import</i>	4,6	2,7	3,1
Qozog'iston	108,6	151,9	95,7
 <i>Eksport</i>	14,0	17,8	16,3
<i>Import</i>	94,6	134,0	79,4
Turkiya	22,9	21,6	9,3
 <i>Eksport</i>	13,4	12,3	4,2
<i>Import</i>	9,5	9,3	5,1
Ukraina	7,0	1,1	3,0
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	1,0
<i>Import</i>	7,0	1,1	2,0
Latvia	0,8	7,8	1,2
 <i>Eksport</i>	-	0,2	0,9
<i>Import</i>	0,8	7,6	0,3
Fransiya	0,9	1,6	1,5
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,9	1,6	1,5

Davomi

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 Qirg'iz Respublikasi	5,5	6,0	3,5
<i>Eksport</i>	1,6	1,8	1,9
<i>Import</i>	3,9	4,2	1,6
 Afg'oniston	51,6	97,4	57,1
<i>Eksport</i>	50,5	97,3	54,2
<i>Import</i>	1,1	0,1	2,9
 Belarus	0,9	1,0	1,1
<i>Eksport</i>	0,4	0,2	0,3
<i>Import</i>	0,5	0,8	0,8
 Hindiston	1,0	1,8	4,7
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	1,0	1,8	4,7
 BAA	0,3	0,0	0,3
<i>Eksport</i>	0,3	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,3
 Tojikiston	9,2	6,0	3,0
<i>Eksport</i>	7,7	5,2	2,8
<i>Import</i>	1,5	0,8	0,2
 Eron	4,4	2,5	2,2
<i>Eksport</i>	1,5	1,6	1,3
<i>Import</i>	2,8	0,9	0,9
 Pokiston	0,0	0,2	10,0
<i>Eksport</i>	0,0	0,1	8,6
<i>Import</i>	0,0	0,1	1,4
 Italiya	44,1	4,6	0,7
<i>Eksport</i>	-	0,0	0,0
<i>Import</i>	44,1	4,6	0,7
 Polsha	0,7	1,2	0,8
<i>Eksport</i>	0,2	0,9	0,1
<i>Import</i>	0,5	0,3	0,7




SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH doll.)*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 36,5 % ulush bilan 131,0 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,6 % ulush bilan 2,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga kamaydi.









Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-iyul oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga ko'payib jami TSA'dagi ulushi 53,3 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, 167,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport 58,3 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 109,5 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)


<p>Rossiya TSA – 60,8 Eksport – 35,8 Import – 25,0</p> 	<p>Qozog'iston TSA – 95,7 Eksport – 16,3 Import – 79,4</p> 
<p>Qirg'iz Respublikasi TSA – 3,5 Eksport – 1,9 Import – 1,6</p> 	<p>Belarus TSA – 1,1 Eksport – 0,3 Import – 0,8</p> 
<p>Tojikiston TSA – 3,0 Eksport – 2,8 Import – 0,2</p> 	<p>Ukraina TSA – 3,0 Eksport – 1,0 Import – 2,0</p> 



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (16,9 %), Qozog'iston (26,6 %) hamda Ukraina (0,8 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 163,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 55,0 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 108,0 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI (2024- yil yanvar-iyul)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksport hajmi 153,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 24,9 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-iyul ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(yanvar-iyul, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	203,8	153,2	122,7	75,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	114,3	75,2	173,8	65,8	56,1	49,1
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	3,9 m.	27,0	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	4,7	6,5	56,9	138,2	2,3	4,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	0,0	0,7	3,8 m.	28,7 m.	0,0	0,5
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	8,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	6,8	3,7	90,3	53,7	3,4	2,4
Sanoat tovarlari	59,9	49,4	94,6	82,5	29,4	32,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	3,6	3,0	75,5	83,5	1,8	2,0
Turli xil tayyor buyumlar	13,0	12,7	91,1	97,9	6,4	8,3
Xizmatlar	1,2	1,8	103,5	152,8	0,5	1,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,8 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (33,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (47,4 %) va turli xil tayyor buyumlar (8,6 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-iyul)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	50 065,8	51,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	3,3	129,5
Sabzavotlar va mevalar	24 918,7	155,0
Boshqa joyda tasniflanmagan oziq-ovqat mahsulotlari va pereparatlar	8,3	34,8
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,6	39,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	4 983,5	2,1 m.
Qog'oz massasi va makulatura	1 023,0	51,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	999,4	38,0
Birlamchi shakldagi bo'lmagan plastmassalar	1 835,4	74,4
O'g'itlar (272 guruxiga kiritilgan o'g'itlardan tashqari)	445,9	0,0

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	34 122,5	78,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3 765,6	50,1
Cho'yan va po'lat	4,0	2,8 m.
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	10 897,7	135,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	16,7	22,1 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 830,3	88,7
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	12 537,7	102,8
Har xil tayyor buyumlar	180,2	46,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	0,6

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida MDH mamlakatlariga 58,3 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 38,1 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



2024- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 89,1 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	30 815,1	35 804,5	93,3	116,2	6	4
Turkiya	12 290,5	4 193,7	91,8	34,1	8	12
XXR	27 708,7	21 496,0	85,5	77,6	9	8
Qozog'iston	17 836,5	16 277,4	127,2	91,3	3	6
Afg'oniston	97 315,7	54 218,6	192,7	55,7	2	10
Qirg'iz Respublikasi	1 750,8	1 866,2	107,4	106,6	4	5
Tojikiston	5 236,1	2 802,9	67,7	53,5	10	11
BAA	68,9	43,8	25,7	63,6	15	9
Pokiston	3 063,2	8 616,2	92,8	2,8 m.	7	1
Egipt	0,0	826,8	0,0	0,0	16	16
Eron	1 582,8	1 276,1	104,0	80,6	5	7
Belarus	239,4	303,8	61,1	126,9	11	2
Polsha	858,6	119,4	4,0 m.	13,9	1	13
Ozarbayjon	184,8	220,8	28,4	119,5	14	3
Turkmaniston	231,5	44,7	34,9	19,3	13	14
Buyuk Britaniya	97,5	0,0	0,0	0,0	17	17
AQSH	64,7	6,5	51,2	10,0	12	15



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-iyul, mln.AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 24,9 % bilan 38,1 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 1,1 % bilan 1,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-iyul oylarida 67,0 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,8 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (14,4), Pokiston (29,0 %), Qozog'iston (36,8 %), hamda Latviya (3,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 24,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 54,5 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 16,3 % ni tashkil etdi.











MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyul, qiymati)

<p>Pomidor</p> <p>230,8 ming. AQSH dollari</p> <p>255,4 tonna</p> 	<p>Karam</p> <p>996,4 ming. AQSH dollari</p> <p>3 951,7 tonna</p> 	<p>Qovun-tarvuz</p> <p>1 926,8 ming. AQSH dollari</p> <p>5 190,6 tonna</p> 	<p>Piyoz</p> <p>5 595,3 ming. AQSH dollari</p> <p>31 204,2 tonna</p> 
<p>Uzum yangi yoki quritilgan</p> <p>744,5 ming. AQSH dollari</p> <p>639,2 tonna</p> 	<p>Grek yong'og'i</p> <p>13,7 ming. AQSH dollari</p> <p>8,9 tonna</p> 	<p>No'xat</p> <p>3 176,6 ming. AQSH dollari</p> <p>11 308,3 tonna</p> 	<p>Loviya</p> <p>6 081,8 ming. AQSH dollari</p> <p>2 670,4 tonna</p> 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-iyul)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Eron	240,1	325,6	1,3
 Pokiston	16 907,7	7 231,2	29,0
 Qozog‘iston	31 802,1	9 162,3	36,8
 XXR	820,5	571,1	2,3
 Afg‘oniston	10 205,8	3 603,4	14,5
 Latviya	2 361,8	913,0	3,7
 Tojikiston	323,2	133,8	0,5
 Boshqa davlatlar	4 339,8	2 978,4	11,9

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-iyul oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog‘istonga to‘g‘ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 36,8 %) tashkil qilmoqda.




SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 206,0 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 76,7 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (21,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (34,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (19,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,3 % ga kamaydi va 206,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	268,4	206,0	102,7	76,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	125,5	70,7	129,3	56,4	46,7	34,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	2,7	0,0	0,0	0,0	1,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	8,9	4,1	77,1	46,1	3,3	2,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	18,1	17,8	2,7 m.	98,4	6,8	8,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	6,8	1,6	6,3 m.	23,9	2,5	0,8
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	41,7	40,4	95,3	97,0	15,5	19,6
Sanoat tovarlari	15,1	17,1	101,0	113,1	5,6	8,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	46,2	43,6	56,0	94,4	17,2	21,2
Turli xil tayyor buyumlar	4,2	4,5	111,9	107,9	1,6	2,2
Boshqa tovarlar	1,9	3,5	0,0	187,2	0,8	1,6



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyul)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	54 045,3	47,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2 450,4	73,0 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2 395,8	42,8
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	6 310,6	140,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	251,6	7,3
Probka va yog'och-taxtalar	2432,5	79,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	389,4	10,0
Ko'mir, koks va briketlar	11 450,7	80,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 632,5	23,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 060,5	110,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	20 121,7	93,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	7 066,3	160,9
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	6 944,4	72,3

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	2 923,8	89,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 226,4	95,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2 330,5	75,0
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	8 427,8	2,0 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	686,3	38,0
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	14 137,5	44,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	15 591,7	186,1
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 753,3	105,3
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 669,4	129,2
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	732,5	88,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	803,9	86,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	214,6	148,5

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-iyul oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 53,2 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 13,1 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



2024- yil yanvar-iyul oylarida Sirdaryo viloyati 45 ta davlatlar bilan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Germaniya	2 703,4	3 122,2	58,6	115,4	14	8
Rossiya	38 136,3	24 998,7	132,0	65,6	9	11
XXR	46 174,7	66 221,7	101,7	143,4	11	7
Qozog'iston	134 048,5	79 386,8	139,9	59,2	7	12
Turkiya	9 292,2	5 068,1	98,0	54,5	12	13
Koreya Respublikasi	1 104,9	1 741,7	15,9	157,6	18	6
Litva	7 651,0	132,3	9,3 m.	1,7	2	16
Vengiriya	907,7	1 606,1	191,9	176,9	4	4
Bolgariya	0,0	310,2	2,5 m.	0,0	3	17
Turkmaniston	0,0	134,4	0,0	0,0	20	20
Belarus	762,0	789,2	184,3	103,5	5	9
Bangladesh	0,0	0,0	154,1	0,0	6	18
Italiya	4 564,9	667,3	10,4	14,6	19	15
Buyuk Britaniya	94,3	542,1	21,1 m.	5,7 m.	1	3
Eron	878,0	889,7	30,8	101,3	17	10
Polsha	370,9	650,6	79,0	175,4	13	5
AQSH	45,5	453,7	132,9	9,9 m.	8	2
Afg'oniston	70,2	2 895,6	30,8	41,1 m.	16	1
Azərbayjon	0,0	310,2	38,3	0,0	15	19
Qirg'iz Respublikasi	4 235,5	1 644,6	109,1	38,8	10	14



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH doll.)



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 45,1 % bilan 92,8 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,2 % bilan 0,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2024- yil yanvar-iyul oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi 43,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 5,6 % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 21,2 % ni tashkil qildi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyul)




2024- yil yanvar-iyul oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 mln. AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — 28,8 mln. AQSH dollari (66,0 %), Ukraina — 2,0 mln. AQSH dollari (4,7 %) va Hindiston – 3,8 mln. AQSH dollari (8,6 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-iyul oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 17,1 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,1 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 8,3 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyul)



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (8,4 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (2,2 mln. AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (2,3 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.